



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(2)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 56 sahifa,  
6-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



# MUNDARIJA

Fizika ta'limida integratsiyalashgan yondashuv: mazmuni va ahamiyati.....	10
<a href="#">Doniyorova Iroda Baxtiyor qizi</a>	
Zamonaviy boshlang'ich ta'lim: milliy dastur, kompetensiya va xorijiy tajriba integratsiyasi.....	14
<a href="#">Omonova Nilufar Parda qizi</a>	
The Role of Environmental Project-Based Learning in Developing EFL Learners' Productive Skills.....	19
<a href="#">Xujanova Shaxina Abdullayevna</a>	
Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik aspektlari .....	24
<a href="#">Eshpo'latova Elnora Yo'ldoshovna</a>	
Talabalarda stressga barqarorlikning nazariy va amaliy tahlili.....	29
<a href="#">Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Maxmudova Shahzoda Maksudovna</a>	
Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda didaktik ta'minotning ahamiyati.....	32
<a href="#">Ramozonova Bahoroy Sadriddinovna</a>	
Oliy ta'limda raqamli pedagogikaning institutsionallashuvi: boshqaruv, siyosat va raqamli transformatsiya strategiyalari.....	36
<a href="#">Nuraliyeva Dilshoda Yo'lichiboy qizi</a>	
Aholini jismoniy sog'lomlashtirishda sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	41
<a href="#">V. Sh. Raximov</a>	
O'spirinlik davrida motiv va motivatsion sohalarning kasb tanlashdagi o'rni .....	46
<a href="#">Rayimqulova S., Pulatova R., Do'smatova S., Matyakubova Shohista Odamboy qizi</a>	
Tarbiyachi shaxsining shakllanishida psixologik determinantlarning roli .....	51
<a href="#">Vasila Yusupova</a>	

# O'SPIRINLIK DAVRIDA MOTIV VA MOTIVATSION SOHALARNING KASB TANLASHDAGI O'RNI

Rayimqulova S.

Pulatova R.

Do'smatova S.

Toshkent amaliy fanlar universiteti, 4-kurs talabarlari

Matyakubova Shohista Odamboy qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti, katta o'qituvchi

ORCID: 0009-0006-1057-8959

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'spirinlik davrida motiv va motivatsion sohalarining kasb tanlashdagi o'rni haqida so'z yuritiladi. Bugungi kunda bu mavzu dolzarb mavzulardan hisoblanadi. Chunki o'spirinlik davri shaxsning o'zligini anglash, mustaqil qaror qabul qilish va hayotiy maqsadlarini belgilash bosqichi hisoblanadi. Aynan shu davrda kasb tanlash masalasi yoshlar hayotidagi eng muhim ijtimoiy-psixologik vazifalardan biriga aylanadi. O'spirinlik davrida shakllanadigan motiv va motivatsion sohalar yoshlarning kasbiy o'zini belgilashi, jamiyatda munosib o'rin egallashi hamda shaxsiy baxt-saodatini ta'minlashida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** o'spirinlik, o'smirlik, motiv, motivatsiya, identiklik, "men" obrazi, sog'lom muhit, xulq-atvor.

**Abstract:** This article examines the role of motives and the motivational sphere in choosing a profession during adolescence. Today, this topic is considered one of the most relevant, as adolescence is a stage of personality formation, making independent decisions, and setting life goals. It is during this period that the issue of choosing a profession becomes one of the most important socio-psychological tasks in the lives of young people. The motives and motivational sphere formed in adolescence are a crucial factor in the professional self-determination of young people, their attainment of a *достойное* place in society, and the achievement of personal well-being.

**Key words:** youth, adolescence, motive, motivation, identity, self-image, healthy environment, behavior.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль мотива и мотивационной сферы в выборе профессии в подростковом возрасте. Сегодня эта тема считается одной из актуальных. Поскольку подростковый возраст – это этап формирования личности, принятия самостоятельных решений и постановки жизненных целей. Именно в этот период вопрос выбора профессии становится одной из важнейших социально-психологических задач в жизни молодежи. Мотивы и мотивационная сфера, формирующиеся в подростковом возрасте, являются решающим фактором в профессиональном самоопределении молодых людей, занятии ими *достойного* места в обществе и обеспечении личного счастья.

**Ключевые слова:** юность, подростковый возраст, мотив, мотивация, идентичность, образ "я", здоровая среда, поведение.

## KIRISH

O'spirinlik davrida shakllanadigan motiv va motivatsion sohalar yoshlarning kasbiy o'zini belgilashi, jamiyatda munosib o'rin egallashi hamda shaxsiy baxt-saodatini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu bois, mazkur masalani psixologik, pedagogik va ijtimoiy jihatdan chuqur o'rganish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Mazkur davrga xos muhim xususiyatlardan biri – hayotiy rejalarning shakllanishidir. Bir tomondan, hayotiy rejalar shaxsning o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini umumlashtirish va mustahkamlash jarayonida vujudga keladi. Ikkinchi tomondan esa, maqsad va motivlarning aniq va izchil shakllanish jarayoni kuzatiladi.

"Eng buyuk boylik – bu yoshlar"<sup>1</sup>, deya ta'kidlaydi Prezident Mirziyoyev. U yoshlarni mamlakatning eng qimmatli resursi sifatida e'tirof etib, ularni puxta kasb egallash va o'z iste'dodlarini rivojlantirishga undaydi. Ushbu fikrlar o'spirinlarning kasb tanlash motivlarini shakllantirishning naqadar muhim ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

1 Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 504 b.



O'spirinlik davrining psixologik xususiyatlari – o'z-o'zini anglash, ideal “Men” obrazining shakllanishi, mustaqillikka intilish kabi omillar kasbiy o'zini belgilash jarayoni bilan uzviy bog'liqdir. Psixolog olim Erik Erikson o'zining psixosozial rivojlanish nazariyasida ushbu davrni “identiklikni shakllantirish bosqichi”<sup>2</sup> sifatida izohlaydi.

Kasb tanlash jarayoni nafaqat iqtisodiy, balki chuqur shaxsiy identifikatsiya jarayoni hamdir. Mazkur jarayonning ongli va to'g'ri yo'naltirilishi shaxsning kelajakdagi muvaffaqiyati, ichki qoniqishi va kasbiy rivojlani-shiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli motiv va motivatsion sohalarni ilmiy asosda o'rganish hamda o'quv-chilarda ichki motivatsiyani shakllantirish zamonaviy pedagogika va psixologiyaning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar o'spirinlik davrining psixologik xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, o'spirinlarning sog'lom va barkamol shaxs sifatida shakllanishini ta'minlashga qaratilgan samarali qo'llab-quvvatlash hamda ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko'plab xorijiy olimlar o'spirinlik davri va uning turli jihatlarini o'rganishga katta hissa qo'shgan. Jumladan, Erik Erikson, G. Stanley Hall, Jean Piaget, Anna Freud, Urie Bronfenbrenner hamda Lawrence Cohen kabi olimlarning ilmiy ishlari ushbu davrni har tomonlama o'rganishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimiz olimlari – M.G. Davletshin, G'. Shoumarov, R.Z. Asomova, F.I. Xaydarov, S.X. Jalilova hamda N.I. Xalilovalarning ilmiy izlanishlariga tayanib aytish mumkinki, o'spirinlik davrida motivatsion soha hali to'liq barqarorlashmagan bo'lishi mumkin.

Shu sababli, mazkur davrda kasb tanlash jarayoni faqat hissiy omillarga emas, balki ongli ravishda amalga oshiriladigan chuqur o'z-o'zini tahlil qilishga, shaxsiy qiziqishlar, qobiliyatlar va hayotiy maqsadlarni aniq belgilashga asoslanishi maqsadga muvofiqdir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda o'spirinlik davrining psixologik xususiyatlarini yoritishda yetakchi xorijiy olimlarning ilmiy qarashlariga tayanildi. Xususan, Erik Erikson tomonidan ishlab chiqilgan psixosozial rivojlanish nazariyasi o'spirinlik davrini shaxs identikligi shakllanadigan muhim bosqich sifatida izohlaydi.

Jean Piaget bolalarning kognitiv rivojlanishiga oid tadqiqotlari orqali o'smirlarning fikrlash, moslashish va o'rganish jarayonlarini ilmiy asosda tushuntirib bergan.

Anna Freud bolalar va o'smirlar psixologiyasini chuqur o'rganib, shaxs shakllanishida bolalik va o'smirlik davrining ahamiyatini asoslab bergan.

Urie Bronfenbrenner tomonidan yaratilgan ekologik tizimlar nazariyasi shaxs rivojlanishiga atrof-muhit, jumladan, oila, maktab, jamiyat va madaniyatning ta'sirini kompleks tarzda o'rganishga imkon beradi.

Lawrence Cohen esa stress omilining o'smirlik davriga ta'sirini o'rganib, uning jismoniy va ruhiy salomatlikka ta'sir mexanizmlarini yoritib bergan. Ushbu olimlarning ilmiy ishlari o'spirinlik davri, uning xususiyatlari hamda shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur anglashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, o'smirlik davrini tadqiq etgan olimlar orasida G. Stanley Hall alohida o'rin tutadi. U “o'smirlik davrining otasi” sifatida e'tirof etilib, o'smirlikni mustaqil psixologik bosqich sifatida asoslab bergan hamda “bo'ron va zaryiq” (storm and stress) nazariyasini ilgari surgan. U o'smirlik davrini taxminan 14–24 yosh oraliqini qamrab oluvchi bosqich sifatida tavsiflab, ushbu davrda hissiy beqarorlik, ichki ziddiyatlar va shaxs shakllanishining murakkab jarayonlarini ilmiy asosda tahlil qilgan<sup>3</sup>.

Zamonaviy psixologik yondashuvlarda o'smirlik va o'spirinlik davrlarini ikki bosqichga ajratish keng qo'llaniladi. Ilgari ushbu davrlar yagona bosqich sifatida talqin etilib, 14–21 yosh oraliqini qamrab olgan bo'lsa, hozirgi kunda ko'pchilik tadqiqotchilar 15–18 yosh oraliqini ilk o'spirinlik davri sifatida ajratishni ma'qul deb hisoblaydilar. Ushbu davr umumta'lim maktablarining yuqori sinflari hamda kasb-hunar ta'limi bosqichiga to'g'ri keladi. Mazkur bosqichda o'quvchilar jismonan yetuklashib, mustaqil hayotga tayyorlana boshlaydilar va o'zlarini turli faoliyat sohaslarida sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Yosh davrlarini ilmiy asosda tasniflashda D.B. Elkoninning yondashuvi muhim ahamiyatga ega. U inson ontogenezini quyidagi bosqichlarga ajratadi: go'daklik davri (tug'ilgandan 1 yoshgacha), ilk bolalik davri (1–3 yosh), maktabgacha davr (3–7 yosh), kichik maktab yoshi (7–11 yosh), o'smirlik davri (11–15 yosh) va ilk o'spirinlik davri (16–18 yosh).

Inson xulq-atvori tuzilmasida o'zaro bog'liq bo'lgan qo'zg'atuvchi va boshqaruvchi omillar mavjud bo'lib, psixologiyada ularni izohlashda “motiv” va “motivatsiya” tushunchalari markaziy o'rin egallaydi. Motivatsiya

2 Erik Erikson. Bolalik va jamiyat (ingliz tilidan tarjima). – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2017. – 145 b.

3 E.G'. G'oziyev. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – Toshkent: “Universitet”, 2002. – 75 b.

motivga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, u shaxs xulq-atvorini belgilovchi ehtiyojlar, maqsadlar, intilishlar va boshqa omillar tizimini o'z ichiga oladi. Shu bois motivatsiya inson faoliyatining yo'nalishi, faolligi va mazmunini belgilovchi muhim psixologik mexanizm sifatida qaraladi.

Motivatsiyani inson xulq-atvori, uning kelib chiqishi, yo'nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmui sifatida talqin etish mumkin. Bu jarayonda shaxsning ichki ehtiyojlari va tashqi omillar uyg'unlashgan holda faoliyatni rag'batlantiradi<sup>4</sup>.

Mazkur yo'nalishda Henry Murrayning ilmiy qarashlari alohida e'tiborga loyiq. U erishuv motivatsiyasini shaxsning yuqori natijalarga erishishga, bilim va ko'nikmalarni egallashga hamda muayyan standartlarga intilishiga asoslangan ichki ehtiyoj sifatida izohlaydi. Yuqori darajadagi motivatsiyaga ega shaxslar, odatda, qat'iyatli bo'lib, o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga izchil va samarali erishishga intiladilar.

### TAHLIL VA NATIJALAR

“O'spirinlik davrida kasb tanlashda motiv va motivatsiyalarning ahamiyati jinsiy tafovutlarga ko'ra turlicha namoyon bo'lishi mumkin”, degan ilmiy farazni tekshirish maqsadida umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida tahsil olayotgan 62 nafar o'spirin ishtirokida empirik tadqiqot olib borildi.

Tadqiqot jarayonida “Kasbiy faoliyat diagnostikasi” (Holland testi) hamda “Bilimlarni egallashga intilish” metodikalari qo'llanildi. Olingan natijalar quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval: O'spirinlik davrida motiv va motivatsiyaning kasb tanlash jarayonidagi o'rni


Tip nomlari	M
Realistik tip	5,3
Aqliy tip	5,3
Ijtimoiy tip	5,8
Konvensional tip	5,3
Tadbirkor tip	6,1
Artistik tip	5,2

M – o'rtacha arifmetik qiymat

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, o'spirinlarda kasbiy motivatsiya John L. Holland metodikasi asosida 6 ta tipga ajratildi. Natijalarga muvofiq, realistik tip – 5,3; aqliy tip – 5,3; ijtimoiy tip – 5,8; konvensional tip – 5,3; tadbirkor tip – 6,1; artistik tip – 5,2 o'rtacha ballni tashkil etdi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, tadbirkor tipga mansub o'spirinlarda o'rtacha arifmetik qiymat (M) boshqa tiplarga nisbatan yuqoriroq bo'lib, bu ularning yetakchilikka intilishi, tashabbuskorligi va faol ijtimoiy pozitsiyaga ega ekanligini ifodalaydi.

Olingan natijalarni yanada yaqqolroq tasavvur qilish maqsadida quyidagi diagramma taqdim etiladi (1-rasm)



1-rasm: O'spirinlik davrida motiv va motivatsiyaning kasb tanlash jarayonidagi o'rni

Tahlil natijalariga ko'ra, eng yuqori ko'rsatkich tadbirkorlik tipiga mansub bo'lib, o'spirinlarda tadbirkorlik bilan bog'liq kasblarga qiziqish boshqa yo'nalishlarga nisbatan yuqori ekanligi kuzatildi. Ijtimoiy tipga mansub kasblar keyingi o'rinni egalladi.

<sup>4</sup> R.M. Abdullayeva. Umumiy psixologiya: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2022. – 331 b.



Konvensional, realistik va aqliy tiplar bo'yicha natijalar deyarli teng ko'rsatkichlarni qayd etdi. Bu holat o'spirinlarning ushbu yo'nalishlarga ham barqaror qiziqish bildirayotganini anglatadi va ularning kasbiy qiziqishlari rang-barang ekanligini ko'rsatadi (2-jadval).


2-jadval: "Bilimlarni egallashga intilish" metodikasi natijalari

Jins	O'g'il	Qiz
M	4,7	5,3

Umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida tahsil olayotgan 62 nafar o'spirin (jumladan, 32 nafar qiz va 30 nafar o'g'il) ishtirokida o'tkazilgan "Bilimlarni egallashga intilish" metodikasi natijalari o'rtacha arifmetik qiymatlar (M) asosida tahlil qilindi.

Natijalarga ko'ra, o'g'il bolalarda bilimlarni egallashga bo'lgan intilish darajasi 4,7 ballni, qiz bolalarda esa 5,3 ballni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichlar har ikkala guruhda ham bilim olishga ijobiy munosabat mavjudligini, ayniqsa qizlarda bu ko'rsatkich nisbatan yuqoriroq ekanligini ko'rsatadi.

Olingan natijalarni yanada yaqqolroq tasavvur qilish maqsadida quyidagi diagramma taqdim etiladi (2-rasm)



2-rasm: "Bilimlarni egallashga intilish" metodikasi natijalari

"Bilimlarni egallashga intilish" metodikasi natijalariga ko'ra, o'g'il bolalarda bilimlarni egallashga intilish darajasi 47 % ni, qizlarda esa 53 % ni tashkil etdi.

Mazkur natijalardan kelib chiqib, qizlarda bilimlarni egallashga bo'lgan intilish darajasi o'g'il bolalarga nisbatan biroz yuqoriroq ekanligi kuzatildi. Bu holat har ikkala guruhda ham ijobiy o'quv motivatsiyasi shakllanganini ko'rsatadi hamda ayniqsa qizlarda bilim olishga bo'lgan qiziqishning yanada faol namoyon bo'layotganini ifodalaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'spirinlik davrida motiv va motivatsion sohalar kasb tanlash jarayonida muhim psixologik omil sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu davrda shakllanadigan ichki motivlar, qiziqishlar va intilishlar yoshlarning kasbiy yo'nalishini belgilashda asosiy rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'spirinlarda tadbirkorlik tipiga mansub kasblarga qiziqish nisbatan yuqoriroq ekanligi aniqlandi, bu esa yoshlarning tashabbuskorlik, yetakchilik va mustaqil faoliyatga bo'lgan intilishlari izchil rivojlanib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ijtimoiy yo'nalishdagi kasblarga bo'lgan qiziqish ham yetarli darajada shakllangani kuzatildi.

"Bilimlarni egallashga intilish" metodikasi natijalari qizlarda o'quv motivatsiyasi o'g'il bolalarga nisbatan biroz yuqoriroq ekanligini ko'rsatdi, bu esa ularda bilim olishga bo'lgan mas'uliyat va ichki rag'batning barqarorroq shakllanganligini anglatadi. Biroq, har ikkala guruhda ham ijobiy o'quv motivatsiyasining mavjudligi qayd etildi, bu esa ta'lim jarayonining samarali tashkil etilayotganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, o'spirinlik davrida motiv va motivatsion sohalarning shakllanishi yoshlarning kasbiy o'zini belgilashi, jamiyatda o'z o'rnini topishi hamda shaxs sifatida barkamol rivojlanishida muhim ahamiyat

kasb etadi. Shu munosabat bilan umumta'lim maktablarida o'quvchilarning kasbiy qiziqishlari va motivatsiyasini aniqlashga qaratilgan psixologik diagnostika ishlarini muntazam tashkil etish, o'quvchilarda ichki motivatsiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan treninglar, seminarlar va kasbga yo'naltiruvchi dasturlarni joriy etish, ota-onalar hamda pedagoglar uchun o'spirinlarni kasb tanlash jarayonida to'g'ri yo'naltirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish, yoshlarning individual qobiliyatlari, qiziqishlari va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda kasb tanlashga ko'maklashish tizimini takomillashtirish, shuningdek, ta'lim jarayonida amaliy mashg'ulotlar va real kasbiy faoliyatga yaqinlashtirilgan tajribalarni kengaytirish orqali motivatsiyani yanada oshirish maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 504 b.
2. Erik Erikson. Bolalik va jamiyat (ingliz tilidan tarjima). – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2017. – 145 b.
3. M.G. Davletshin va boshq. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – Toshkent: TDPU, 2007. – 83–84-betlar.
4. M.G. Davletshin va boshq. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya: o'quv qo'llanma. – Toshkent: TDPU, 2004. – 84 b.
5. E.G'. G'oziyev. Umumiy psixologiya. 1-kitob. – Toshkent: "Universitet", 2002. – 186 b.
6. R.M. Abdullayeva. Umumiy psixologiya: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2022. – 331 b.
7. X.A. Tillashayxova, S.N. Jo'rayeva, R.M. Abdullayeva. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2022. – 332–335-betlar.
8. R.M. Abdullayeva. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2022. – 336–337-betlar.
9. F.I. Xaydarov, N.I. Xalilova. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2009. – 273 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.